



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20757293>

Musiqa madaniyat darslarini olib borishda ta'lim beruvchining o'рни

Soliyev Abdusalom Raximovich –
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: soliyev19633@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada musiqa madaniyati darslarini olib borishda ta'lim beruvchini egallagan maxsus bilimlar, yuqori kasbiy mahorat, umumiy madaniyat, g'oyaviyaxloqiy sifatlar, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni hal qilishi hamda ta'lim beruvchining har tomonlama tizimli yondashuv, tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishga faol ilmiy asoslanagan uslub va vositalarini joriy etish yo'llari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, kasbiy, kompetentlik, uyg'unlik, prinsip, estetik, bilim, ijodiy, fikrlash, zamonaviy, texnika, pedagogik, psixologik.*

Роль педагога в проведении уроков музыкальной культуры

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются специальные знания учителя, высокие профессиональные навыки, общая культура, идейно-нравственные качества, решающие экономические и социальные задачи, а также комплексный системный подход учителя, активного в организации воспитательной работы. Обсуждаются пути внедрения научно обоснованных методов и инструментов.*

***Ключевые слова:** образование, профессиональное, компетентность, гармония, принципиальность, эстетическое, знание, творческое, мышление, современное, техническое, педагогическое, психологическое.*

The Role of the Teacher in Conducting Music Culture Lessons

***Annotation.** This article examines the special knowledge of the teacher, high professional skills, general culture, ideological and moral qualities that solve economic and social problems, as well as the integrated systemic approach of the teacher, active in organizing educational work. The ways of introducing scientifically based methods and tools are discussed.*

***Keywords:** education, professional, competence, harmony, integrity, aesthetic, knowledge, creative, thinking, modern, technical, pedagogical, psychological.*

KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat olib borayotgan o'rta ta'lim maktab ta'lim oluvchilarini musiqa fanini o'qitish jarayonida ularni malakalarini puxta egallash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ushbu jarayonda asosiy o'rinni musiqa madaniyati darsini olib

boruvchi o'qituvchisi o'ynaydi. Uning faoliyatiga katta e'tibor berish zarur. Musiqiy ta'limning o'ziga xos jixatlaridan biri shundaki, bugun musiqa madaniyati darsini olib boruvchilari egallagan maxsus bilimlar, yuqori kasbiy mahorat, umumiy madaniyat, g'oyaviy-axloqiy sifatlar, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni hal qilishning omili sifatida amalga oshirilmoqda. Chunki, nafaqat ta'lim mazmuniga, balki tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish, ta'lim oluvchilarning madaniyatini o'stirish hamda rivojlantirish yo'llariga ham talab oshmoqda. Musiqa madaniyati darslari orqali har tomonlama, tizimli yondashuv, tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishga faol ilmiy asoslanagan uslub va vositalarini joriy qilish kelajakda iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot orasidagi o'zaro aloqalarni chuqurlashtirish imkoniyatini beradi. Musiqa ta'limni olib boruvchi pedagoglarning rivojlanishini asosiy xususiyatlaridan biri bu hozirgi paytda maxsus bilimlar, yuqori kasbiy tayyorgarlik va insonning umumiy madaniyati, uning ma'naviy hislatlari iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini yechishda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Musiqa ta'limi oldinda turgan vazifalarini va yechimini hal etishga atroflicha yondashish zaruriyatning paydo bo'lishi ijtimoiy hayotni, ma'naviy muhitni va ijtimoiy muhit bilim o'zaro chuqur bog'lanishi, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish vositalarini ilmiy asoslangan uslublar bilan tadbiiq etishga bog'liqdir. Barkamol rivojlanib kelayotgan yosh avlodni musiqa madaniyati yordamida tarbiyalash jarayoniga tizimli yondashish o'zining maqsadlilik va izchiligi bilan tavsiflanadi. Hozirgi zamon sharoitida musiqa ta'limini olib boruvchilarini shaxs sifatida shakllanishlari, ijtimoiy munosabatlarini rivojlanishi bilan bir jarayonda sodir bo'ladi. Shaxsni tarbiyalash jarayoni rejalashtirilgan maqsadli ishning mazmun va mohiyat evaziga amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Musiqa ta'limini olib boruvchilarini tayyorlashda pedagogik nuqtai nazardan, undagi nazariy va amaliy ta'limning o'qitilishi keng tarmoqli bilimlar majmuiga tayanganligidir. Ta'lim mazmunida pedagogik va musiqiy tayyorgarlik shakllarini kesishuvi yotadi. Zamonaviy ilmiy texnika rivojlanishining asosiy xususiyati, fan va texnika yutuqlarini inson faoliyatini barcha sohalariga joriy etishdan iboratdir. Shu jumladan bugungi kunda u kengaydi, yangi u oddiy qurol vositalari bilan chegaralanib qolmay, o'z ichiga ma'lum bir ilmiy-texnik bilimlarni xam qamrab olyapdi. Bu musiqa ta'limini olib boruvchilarini kasbiy va texnik tayyorgarligi bugungi kunda quyidagilarni ta'minlashi zarur: - birinchidan yetarlicha yuqori darajadagi kasbiy bilim va malakalar bu bilimlar nafaqat ijro amaliyotida shuningdek, ilmiy tushuncha va qonunlarni qo'llashda imkon berishi kerak; - ikkinchidan avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish sharoitida samarli ishlash olishi uchun shaxsda individual xususiyatlar va dunyoqarashni shakllantirish zarur; - uchinchidan ta'lim muassasalarida ta'lim beruvchilarning estetik tarbiyalash yechimini topishda musiqa madaniyati darslari katta imkoniyatlarga egadir. Ta'lim oluvchilarning musiqiy ta'lim jarayonida estetik tamoyillarini ruyobga chiqarishda, ta'lim beruvchidan ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlarini mustaqil qo'llay oladigan vaziyatlarini yuzaga keltirish talab etiladi. Busiz, ta'lim oluvchining o'yg'unlik tayyorgarligiga oid asosiy vazifalar o'z yechimini topmaydi. Bu albatta, musiqa madaniyatini olib boruvchidan kasbiy bilim va malakalarini bo'lishi talab etiladi. Jumladan: 1. Ijodiy faoliyati, ijrochilik, san'ati; 2. Bilish faoliyati, ya'ni musiqiy savodlilik; 3. Musiqiy san'atni, faol tashviqot qilishda foydali faoliyat olib borish. Talabalarga beriladigan barcha bilim va ko'nikmalar o'zaro bog'liq bo'lib, doimo rivojlanib boradi. Olingan bilim va ko'nikmalardan kelib chiqqan holda, maxsus o'quv qo'llanmalar asosi aniqlanadi.

Har bir kasb o'z xususiyatiga ega. Musiqa o'qituvchisining o'ziga xos xususiyati bor. Bu kasbning murakkabligi - deb yozadi musiqashunos pedagog O.A. Apraksina musiqa madaniyati o'qituvchini "Musiqachi" tushunchalariga kiruvchi unuslarni o'zaro bir-biriga jipsligining zaruriyligini aniqlash bilan ifodalansa, ularning har biri ko'p qirrali tushuncha ekanligini unutmaslik zarur. Musiqa ta'limini olib boruvchi o'quvtarbiyaviy ishlarni olib

boradi, ta'lim oluvchilarning dunyoqarashini, fikrlashini va didni shakllantiradi. U nafaqat o'z fanini yaxshi biluvchi keng dunyoqarashli va ma'lumotli shaxs bo'libligina qolmay, balki bu cholg'u sozning ustasi bo'lishi zarur. Shu bilan birga ta'lim muassasasining o'quv-tarbiya faoliyatini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, uni jamoalar bilan o'zaro ta'sirini kuchaytirishdan iboratdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Buning natijasida ta'lim oluvchilar o'quv jarayonida tanlagan ma'lum bir kasbini tanlash imkoniyatiga ega bo'lsin. Bu vazifa ta'lim muassasalarni yuqori malakali musiqa madaniyatini olib boruvchilari bilan ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Musiqa ta'limning nazariy xususiyati birinchi navbatda ta'lim oluvchilarning estetik qarashiga bog'liqdir. Ta'lim beruvchilarning kasbiy kompetentligini uyg'unlik jixatidan prinsipini vazifasi jamiyat va tabiatning asosiy qonunlarini ochishdan, ta'lim oluvchilarni umumlashtirilgan estetik bilimlar bilan qurollantirishdan, ijodiy fikrlashni rivojlantirishdan, mehnat faoliyatida mustaqillikka o'rgatishdan, kasbni yaxshi egallash ruhida tarbiyalashdan, zamonaviy texnika vositalarni qo'llay olish bilimlarini shakllantirishdan iboratdir.

Fanlarning kasbiy-pedagogik mazmunida musiqiy ta'lim, pedagogik, psixologik, uslubiy ma'lumotlardan o'z aksini topishi, o'quv ishlab chiqarish ishlarining har tomonlama shakllanishida umumsoha va umumta'lim ma'noga ega bo'lishi, musiqa ta'limini olib boruvchilarining bilimlarini to'g'ri qo'llay olishi, bilim va ko'nikmalarini aniq jarayonlarda qo'llashi, umumiy bilimlarni bir jarayondan ikkinchisiga o'tkazib olishdan iborat. Musiqa ta'limi beruvchilarini kasbiy kompetentligining rivojlantirishni o'ziga xos xususiyatlarini, o'quv rejasiga nisbatan fanlararo aloqalarini ko'rib, didaktika fanlararo aloqalar, o'quv rejalar tuzilishining asosiy tamoyillarini tashkil etib, g'oya, tushuncha, qonuniy asoslar, bilim va ko'nikmalar oraqali mujassam etishga o'rni kattadir. Musiqa ta'limi beruvchilarini kasbiy kompetentligini tayyorlash mazmunida o'quv dasturlari to'g'risida tushunchalar hosil qilib, ta'lim muassasasiga yo'naltirilgan turli fanlar majmuasiga tayanadi. Ayrim o'quv rejalarini mantiqiy tuzilishida quyidagi aloqa turlari katta ahamiyat kasb etadi; - turli o'quv fanlarida ko'rib chiqiladigan obek'tlar orasida; - har xil o'quv fanlarda tushuntiriladigan turli obek'tlar nazariya qonunlari orqali; - talabalarni amaliy harakatlari va tadqiqot uslublar orqali; - ayrim fanlar qonunlarini umumiy falsafiy tushunchalarga birlashtirish orqali. Musiqa ta'limi beruvchisini kasbiy kompetentligini pedagogik faoliyati yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan ta'lim beruvchining mehnat faoliyatidir. Kasbiy fan jihatdan yondoshsak ta'lim muassasasi musiqa ta'limi beruvchisining faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Har ta'lim oluvchi o'z xulq-atvoriga, shaxsiyatiga ega. Ta'lim oluvchilarni tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o'rganish nihoyatda murakkab. Bunda shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Musiqa ta'limi beruvchisini kasbiy kompetentlikka yondoshga holda pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotganda ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim. Pedagogika, psixologiya, uslubiyot va pedagogik mahorat bir-biri bilan o'zaro bog'liq, yaqin aloqadagi fanlardir. Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir ta'lim beruvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur.

Pedagogik mahorat egasi o'ziga xos tarzda mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli insondagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin. Musiqa ta'limi beruvchisini kasbiy kompetentligini tayyorlashda ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil qilish ta'lim berishning sifatini oshirishda, uni takomillashtirishda ham katta ahamiyatga molikdir. Har bir vaziyat, ta'lim oluvchilar bilan munosabatning har bir ongli ta'lim beruvchida ma'lum ma'noda bir-biriga o'xshamaydi va takrorlanmaydi. Musiqa madaniyati fan ta'lim beruvchisining kasbni qiyin va murakkabligi, ta'lim oluvchi bilan muomala qilishning, unga ta'sir ko'rsatishning

nozikligi, undan tarbiya nazariyasini, psixologiya fanini chuqur bilishni talab qiladi. Musiqa madaniyati fan ta'lim beruvchisining maqsadi fan uchun yangilik ochish, o'zining va boshqalarning ilg'or tajribasini chuqur tahlil qilib, ta'lim - tarbiyaning samarali usul va vositalarini topishdir. Musiqa madaniyati fan ta'lim beruvchisining ijodi ilmiy pedagogik tadqiqot bilan ta'lim-tarbiya tajribasini bir-biriga bog'laydigan zanjir o'rnini o'ynaydi. Ilg'or ta'lim muassasalarning ish tajribasidan ko'rinadiki, haqiqiy ilmiy va qimmatli ijodiy jarayon ana shu bog'lanish tufayli yuzaga kelishi mumkin va shunday ijoddagi pedagogik xulosalar, tavsiyalar ta'lim-tarbiyaning takomillashuviga munosib hissa qo'shadi.

XULOSA

Musiqa madaniyati fan ta'lim beruvchisining ijodi hamma vaqt ma'lum tajribaga asoslanadi. Chunki, ijodkor kishi maqsadga intiltiradi. Musiqa madaniyati fan ta'lim beruvchisi ilg'or metod va usullarni egallash hamda o'z ishida qo'llash yo'llarini izlab pedagogik, ruhshunoslik va ta'lim metodikasining yutuqlari asosida o'z faoliyatini olib boradi. Chunki, ijodiy ishlaydigan ta'lim beruvchi o'z g'alar tajribasini taxlilsiz to'g'ridan-to'g'ri qabul qilmay, o'z tajribasiga taqqoslab ko'radi. Shundan keyingina uning yangi tomonlarini qabul qiladi. Musiqa o'qituvchisining uzoq ishlashi, yuksak pedagogik madaniyatining mahsulidir. Bu musiqa madaniyati fan o'qituvchisining keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahmonov, U.K. Bolalarni barkamol etib shakllantirishda musiqa ta'limining o'rnini / U.K. Rahmonov // *Oriental Art and Culture*. – 2023. – № 2(4). – B. 857–863.
2. Rahmonov, U.K. The Importance of Folklore Songs in the Development of Musical Performance / U.K. Rahmonov // *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*. – 2023. – 15 March. – P. 284–290.
3. Rahmonov, U.K. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy musiqaning o'rnini / U.K. Rahmonov // *O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi jurnali*. – 2023.
4. Rahmonov, U.K. Ijrochilik san'atining musiqa madaniyatidagi o'rnini / U.K. Rahmonov // *Oriental Art and Culture*. – 2023. – № 2(4). – B. 587–593.
5. Rahmonov, U.K. Performer of the Song in the Development of Music: Worldwide Importance / U.K. Rahmonov // *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*. – 2023. – 19 April. – P. 258–273.
6. Soliev, A.R. Vatan tuyg'usi / A.R. Soliev // *So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*. – BECT Publication. – 2022. – № 2. – 12 iyun.
7. Soliev, A.R., Nurmuxammadjonov, A. O'zbekiston Respublikasi madhiyasi tarixiga bir nazar / A.R. Soliev, A. Nurmuxammadjonov // *Uzluksiz ta'lim*. – 2022. – Maxsus son. – ISSN 2091-5594.
8. Soliev, A.R. Musiqa ta'limida innovatsion g'oyalarni qo'llashda noan'anaviy darsliklarning o'rnini / A.R. Soliev // *Ilmiy-amaliy anjuman materiallari*. – Farg'ona: FDU, 2022. – 5 oktabr.
9. Tursunova, L. The Role of Maqom Art in the Spiritual Upbringing of Youth / L. Tursunova // *Academica: An International Multidisciplinary Research Journal*. – P. 143.
10. Tursunova, L. Tools Influencing the Formation of the Intellectual Culture of Youth / L. Tursunova // *International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR)*. – P. 154.
11. Tursunova, L. The Impact of the Global Environment and Its Spiritual Factors on the Musical Culture of Youth / L. Tursunova // *The American Journal of Social Science and Education Innovations*. – P. 14.